



TIL –MILLAT KO’ZGUSIDIR

Qunniyeva Mahbuba Xolnazarovna

Sherobod tumani 71-umumta’lim maktabi

Ona tili va Adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya: O’zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, u yer yuzidagi eng qadimiylari va boy tillardan biri hisoblanadi. Bu tilning ildizlari miloddan avvalgi asrlarga borib taqaladi. O’zbek tilida olamga mashhur ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yaratilgan. Bugun o’zbek tili mustaqil O’zbekistonning davlat tili sifatida davlatimiz ramzlarini qatorida tilga olinadi. O’zbek tilining taraqqiyoti mamlakat mustaqilligi tufayli benihoya jadallahshdi. Tildagi o’sish-o’zgarishlarning xolis va birlamchi ko‘zgusi uning lug‘at boyligidir, jamiyatdagi har qanday o’zgarishlar, eng avvalo, aynan xuddi shu boylikda o‘z aksini topgan. Yurtimiz hayotida yuz berayotgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy yangilanishlar tilimizning lug‘at boyligida ko‘zga tashlanmoqda, bunday o’zgarishlar tilimizni yangi tushuncha va tasavvurlar bilan, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi yangi so‘zlar bilan boyitib bormoqda. Ana shu tarzda mustaqillik davrida tilimizning lug‘at boyligi tarkibida jiddiy taraqqiyot yuz berdi. Tilimizdagi mavjud nutqiy uslublar me’yorlarining barqarorlashganligi ham o’zbek tili taraqqiyotining yuksakligidan dalolat beradi.

Kalit so’zlar: O’zbek tili, ijtimoiy stratifikatsiya, fonetika, frazeologiya, lotin tillar, sheva, rekursivlik, individuallik.

Til deb murakkab muloqot tizimiga yoki shu tizimni o‘rganish va ishlatish qobiliyatiga aytiladi. Til asosan muloqot vositasi hisoblanadi. Tilni o‘rganuvchi sohaga tilshunoslik deyiladi. Jahon tillari miqdorini aniqlash uchun til va sheva orasida ma’lum bir farq o‘rnatish zarur. Shunga qaramay, tillar soni 6—7 ming orasida, deb hisoblanadi. Tabiiy til so‘zlashuv yoki imo-ishora orqali tarqaladi, biroq har qanday til eshitish, ko‘rish, sezish stimullari yordamida yozuv, braille yoki hushtak kabi ikkilamchi vositaga kodlanishi mumkin. Bu odam tili modallikdan mustaqil bo‘lgani uchun buning iloji bor. Keng ma’noda til atamasi ostida biror muloqot tizimining tayinli qoidalari majmuasi tushuniladi. Tillar vaqt o‘tishi bilan o’zgaradi, ularning evolutsiyasini qadimgi tillar keyingi bosqichlar sodir bo‘lishi uchun qanday belgilarga ega bo‘lganini aniqlovchi va ularni zamonaviy tillarga taqqoslovchi tarixiy tilshunoslik o‘rganadi. Umumiy ajdoddan keluvchi tillar guruhiba tillar oilasi deyiladi. Bugungi kunda jahonda eng keng tarqalgantillar, jumladan inglizcha, ispancha, portugalcha, ruscha va hindcha hind-yevropa tillari; mandarin xitoychasi va kantoncha esa sino-tibet tillari; arabcha, amharcha va ivrit esa semit tillari; suahili, zulu va shona esa bantu tillari oilasiga kiradi. Tilshunoslar fikriga ko‘ra bugun mavjud tillarning 50 dan 90 foizgachasi 2100-yilga kelib yo‘qolib ketadi degan taxmin ilgari surilyapti.

Til konkret nutq hodisalari (ayrim gaplar, hikoyalar, bir necha kishining suhbati va shu kabi), jumladan, og‘zaki yoki mexanik usulda takrorlanadigan va yozuv orqali qayd

etiladigan nutq hodisalarida namoyon bo‘ladi. Ko‘plab nutq hodisalarining struktur xususiyatlarini taxlil qilish, qiyoslash va umumlashtirish muayyan tilda mavjud bo‘lgan elementlar va ular o‘rtasidagi munosabatlar majmuini yaxlit murakkab belgi tizimi sifatida anglash va tavsiflash imkonini beradi. Hozirgi davrda turli millat, elat va qabilalarga tegishli 2500 dan 5000 tagacha (ba’zi manbalarda 3000—7000 oralig‘ida) jonli til borligi ma’lum. Ularning har birida barcha tillar uchun umumiyligi bo‘lgan ba’zi universal struktur xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Tilning kamroq umumiyligi bo‘lgan struktur xususiyati alohida so‘zlar doirasida yanada kichikroq fonetik-semantik qismlar — morfemalarning ajralishidir. Nutq jarayonida har qanday nutq hodisasining gaplar tashkil etishi har qanday tovush tilining universal xususiyati hisoblanadi. Umumiyligi xususiyatlar doirasida turli xil tillarda ularni tashkil etuvchi elementlarning cheksiz variantlashuvi va bu elementlarning nutq jarayonidagi o‘zaro munosabati kuzatiladi.

Til mehnat va ijtimoiy ong bilan birgalikda bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, insonni hayvondan farqlovchi 3 ta eng muhim xossalardan birini tashkil etadi. Ushbu hossalar ichida mehnat muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u jamiyat mavjudligining moddiy asosi hisoblanadi. Til — jamiyat boyligi, u jamiyat a’zolarining o‘zaro aloqasini amalga oshiradi, insonning moddiy va ma’naviy turmushida ro‘y beradigan barcha voqealarning hodisalar haqidagi bilimlarni jamlaydi va ulardan xabardor qiladi; til ayni ma’noda asrlar mobaynida shakllanadi va mavjud bo‘ladi. Tafakkur tilga qaraganda birmuncha tezroq rivojlanadi va yangilanadi, leki tilsiz tafakkurni tasavvur etib bo‘lmaydi: tilda ifodalanmagan fikr noaniq, tushunarsiz bir narsa bo‘lib, insonga borliq voqealarning hodisalarini anglab yetishida, fanni rivojlantirish va takomillashtirishda yordam bera olmaydi. Tafakkur tilsiz mavjud bo‘lmas ekan, til ham tafakkursiz yashay olmaydi. Biz o‘ylab turib gapiramiz va yozamiz, o‘z fikrlarimizni tilda aniqroq va tushunarliroq bayon etishga harakat qilamiz. Demak, fikrlar til negizida paydo bo‘ladi va unda mustahkamlanadi; til bilan tafakkur bir butunlikni tashkil etadi.

Tilning, dastlabki tilning paydo bo‘lishi masalasi insoniyatni qadimgi zamonlardan beri qiziqtirib keladi. Qadimgi davrlardan boshlab tilning kelib chiqishi haqida ko‘plab nazariyalar, ta’limotlar paydo bo‘ldi. Lekin bu nazariya va ta’limotlar tilning kelib chiqish masalasini hanuzgacha uzil-kesil hal qilib bera olgani yo‘q. Qayd etilganidek, jahon tillari o‘z grammatik qurilishi, lug‘at boyligi va boshqa jihatidan bir-biridan farq qiladi, lekin shu bilan birga ular barcha tillar uchun mushtarak bo‘lgan umumiyligi qonuniyatlar asosida rivojlanib boradi. Til davr va zamon bilan hamohang ravishda o‘zgarib boradi (o‘zbek tilining qadimgi turkiy til davri bilan hozirgi ko‘rinishi chog‘ishtirilsa, bunday o‘zgarishlar qay darajada bo‘lganligi yaqqol seziladi) va ba’zan, turli ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar oqibatida, muomaladan chiqib ketishi ham mumkin. Masalan, o‘tmishda jahon madaniyati rivojiiga katta hissa qo‘shtigan feklar va rimliklar so‘zlashgan qadimgi yunon va lotin tillari davrlar utishi bilan muomaladan chiqib, o‘lik tillarga aylanib qolgan.

Tildagi o‘zgarishlar tabiatini hamda til taraqqiyotidagi yo‘nalishlar 2 ta boshqa boshqa omil — jamiyat hayotidagi tarixiy o‘zgarishlar hamda til taraqqiyotining muayyan bosqichida uning xususiyatlar bilan belgilanadi. Til tarixining jamiyat tarixi bilan aloqadorligi tilning ichki strukturasini o‘zgarishlarida

(asosan, leksika va frazeologiya sohasida), shuningdek, muayyan tilning tarkalish miqyoslari o‘zgarishida (jumladan, uning funksional uslublari taraqqiyotida) va uning lahjalarga bo‘linishi (differensiatsiyasi) darajasida namoyon bo‘ladi. Jamiatning ayrim hududiy qismlarga iqtisodiy va siyosiy parchalanishi jarayonlari iqtisodiy va siyosiy birlashish jarayonlaridan ustun bo‘lganda, yaxlit, bir butun tillar hududiy lahjalarga bo‘linib ketadi. Aksincha, jamiatning iqtisodiy, siyosiy birlashish jarayonlari-- hududiy parchalanish jarayonlaridan ustunlik qilgan davrlarda, laxjaviy differensiatsiya bilan bir qatorda, adabiyotda adabiy til sifatida mustahkamlanib qoluvchi yagona umumxalq tilini yaratishga imkon bo‘ladi. Umumxalq milliy tilning shakllanishi tegishli millatning shakllanishi davrida ro‘y beradi.

ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Usmonov S, Umumiyy tilshunoslik, T., 1972;
2. Будагов.Р.А, Человек и его язык. М., 1974;
3. Березин. F. M., Головин.В. N., Общие языкоznание, М., 1979;
4. Реформатский А. А., Введение в языковедение. М., 1998.
5. www.arxiv.uz